

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI .....	10
<b>Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna</b>	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА .....	19
<b>Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНАЕ .....	28
<b>Габбарова Ильмира Володиевна</b>	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH .....	34
<b>Amirov Shavkat Rahmatullayevich</b>	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	41
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH .....	46
<b>Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	55
<b>Alimova Dilafro'z Tohir qizii</b>	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	61
<b>Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi</b>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR .....	67
<b>Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdievich, Sharipova Lobar Umrbek qizi</b>	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH .....	82
<b>Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li</b>	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI .....	90
<b>Muxtorova Shaxlo Farxodovna</b>	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH .....	94
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY .....	99
<b>Sultanova Kamila Mukhtorali kizi</b>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	104
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH .....	110
<b>Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich</b>	



MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR .....	116
<b>Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna</b>	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI .....	120
<b>Turdikulova Moxira Maxmasharifovna</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI .....	125
<b>Kaxorova Zamira Safaraliyevna</b>	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO‘Y BERISHI MUMKIN BO‘LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI .....	131
<b>Dehqonov Oyatillo Mansurbek o‘g‘li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich</b>	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH... .....	136
<b>Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg‘ashova Madina, Jo‘rayev Muhiddin</b>	
JAHON MOLIVAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	140
<b>Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.</b>	
KORXONALARDA “TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH” KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJIRIBASI .....	144
<b>Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich</b>	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO‘LLARI.....	149
<b>Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna</b>	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH .....	154
<b>Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna</b>	
AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O‘RNI .....	159
<b>Irgashev Anvar Farxodovich</b>	



# AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O'RNINI

**Irgashev Anvar Farxodovich**

Tashkent International University mustaqil tadqiqotchi

E-mail: a.irgashev@tiu.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda mikroloyihalarning o'rnini tadqiq etilgan. Mikroloyihalar aholining shaxsiy mablag'larini rejalashtirish, bank krediti va boshqa moliyaviy manbalardan oqilona foydalanish, daromad keltiruvchi faoliyatni boshlash hamda oilaviy moliyani boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishning amaliy mexanizmi sifatida tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston bo'yicha 2025-yil 11-aprel holatiga doir mikroloyihalar ma'lumotlari asosida ularning hududiy taqsimoti, moliyalashtirish manbalari va ish o'rinlari yaratishdagi ahamiyati baholangan. Natijalarga ko'ra, mikroloyihalar aholi moliyaviy savodxonligini nazariy bilimdan amaliy moliyaviy xulq-atvoriga aylantiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy savodxonlik, mikroloyiha, moliyaviy siyosat, mahalla, bank krediti, o'z mablag'i, tadbirkorlik, bandlik, moliyaviy inklyuziya, raqamli monitoring.

**Abstract:** This article examines the role of microprojects in improving the financial literacy of the population. Microprojects are analyzed as a practical mechanism for developing citizens' skills in planning personal funds, using bank loans and other financial resources rationally, starting income-generating activities, and managing household finances. Based on data on microprojects implemented in Uzbekistan as of April 11, 2025, the paper evaluates their regional distribution, financing structure, and contribution to job creation. The results show that microprojects serve as an important tool for transforming financial literacy from theoretical knowledge into practical financial behaviour.

**Keywords:** financial literacy, microproject, financial policy, mahalla, bank loan, own funds, entrepreneurship, employment, financial inclusion, digital monitoring.

## KIRISH.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish nafaqat shaxsiy daromad va xarajatlarni boshqarish, balki tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, bandlikni ta'minlash va mahallalarda iqtisodiy faollikni kuchaytirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy savodxonlikka ega fuqaro o'z mablag'larini rejalashtira oladi, kredit va boshqa moliyaviy resurslardan mas'uliyat bilan foydalanadi, daromad keltiruvchi faoliyatni boshlashda risk va imkoniyatlarni baholaydi.

Aholining moliyaviy savodxonligi milliy iqtisodiyot barqarorligi, moliya tizimidan foydalanish madaniyati va aholi farovonligini oshirish bilan bevosita bog'liq jarayondir. Moliyaviy savodxonlik daromad va xarajatlarni boshqarish, kreditga munosabat, soliq va majburiy to'lovlarni tushunish, inflyatsion risklarni anglash hamda moliyaviy xizmatlardan oqilona foydalanish ko'nikmalari bilan chambarchas bog'liq.

Mikroloyihalar aynan shu jarayonda amaliy maktab vazifasini bajaradi. Chunki mikroloyiha tashabbuskori o'z biznes g'oyasini shakllantirish, xarajat va daromadlarni hisoblash, kredit va o'z mablag'i nisbatini belgilash, mahsulot yoki xizmat bozorini baholash, kreditni qaytarish manbalarini rejalashtirish kabi moliyaviy qarorlarni qabul qiladi. Bu esa moliyaviy savodxonlikning kundalik hayotdagi real ifodasidir.

O'zbekistonda mahalla tizimi, hokim yordamchilari instituti, tijorat banklari va mahalliy hokimiyatlar hamkorligida amalga oshirilayotgan mikroloyihalar kambag'allikni qisqartirish, bandlikni oshirish va aholining moliyaviy faolligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bunday loyihalar orqali fuqarolar bank xizmatlari, kreditlash tartibi, biznes-reja tuzish, daromad va xarajatlarni hisobga olish, raqamli monitoring va hisobot madaniyatiga bosqichma-bosqich jalb qilinmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda mikroloyihalarning o'rnini alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur mavzuni tadqiq etish mikroloyihalar orqali aholida moliyaviy mas'uliyat, tadbirkorlik ko'nikmalari, kredit madaniyati va bank xizmatlaridan foydalanish xulq-atvori qanday shakllanishini aniqlash imkonini beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

A. Lusardi va O. Mitchell moliyaviy savodxonlikni shaxsning moliyaviy qarorlarni ongli qabul qilishi, uzoq muddatli rejalashtirish va iqtisodiy farovonlikka erishishida muhim omil sifatida tadqiq etgan. Ularning yondashuvida moliyaviy bilimlar jamg'arma, kredit, investitsiya va pensiya rejalashtirish kabi amaliy qarorlar bilan bog'liq holda baholanadi<sup>1</sup>.

A. Atkinson va F. Messy rahbarligida ishlab chiqilgan OECD/INFE metodologiyasida moliyaviy savodxonlik bilim, xulq-atvor va munosabatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv mikroloyihalar tahlili uchun ham muhimdir, chunki loyiha tashabbuskori nafaqat moliyaviy tushunchalarni bilishi, balki ularni amaliy qarorlarida qo'llay olishi kerak<sup>2</sup>.

A. Demirgüç-Kunt, L. Klapper va hammualliflar moliyaviy inklyuziya bo'yicha tadqiqotlarida bank hisobvaraqlari, kreditlar, raqamli to'lovlar va moliyaviy xizmatlardan foydalanish aholining iqtisodiy faolligini oshirishini asoslab bergan. Mikroloyihalar ham moliyaviy inklyuziyaning amaliy ko'rinishi bo'lib, aholini bank tizimi va rasmiy moliyaviy xizmatlarga jalb etadi<sup>3</sup>.

O'zbekistonda D.A. Muhammedova, J.A. Jo'raev, O.S. Dusmuxamedov va boshqa olimlar aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda moliyaviy siyosat, tijorat banklari va moliyaviy ta'limning ahamiyatini tahlil qilganlar. Dissertatsiyada ham moliyaviy savodxonlikni oshirishda davlat siyosati, budget siyosati, moliyaviy xizmatlar va raqamli texnologiyalar o'zaro bog'liq jarayon sifatida ko'rib chiqilgan<sup>4</sup>.

Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik va moliyaviy xizmatlardan foydalanish masalalari keng o'rganilgan bo'lsa-da, mikroloyihalar orqali aholining moliyaviy bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish masalasi hali yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan. Shu sababli mikroloyihalarni moliyaviy savodxonlikni oshirishning amaliy mexanizmi sifatida o'rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, analiz va sintez, guruhlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish hamda statistik-tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Mazzuga oid ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyada keltirilgan nazariy xulosalar, milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda mikroloyihalar bo'yicha taqdim etilgan statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

Tahlil uchun respublika bo'yicha "Dolzarb bir oylik" safarbarligi davrida amalga oshirilgan mikroloyihalar to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanildi. Mazkur ma'lumotlar 2025-yil 11-aprel holatiga ko'ra hududlar kesimida mikroloyihalar soni, loyiha qiymati, o'z mablag'i, bank krediti va yaratilgan ish o'rinlari bo'yicha umumlashtirildi.

Maqolada mikroloyihalar aholining moliyaviy savodxonligiga ta'sir etuvchi amaliy mexanizm sifatida baholandi. Bunda loyiha tashabbuskorining moliyaviy qaror qabul qilishi, kredit va o'z mablag'i nisbatini belgilashi, daromad manbai yaratishi, bank xizmatlaridan foydalanishi va ish o'rni yaratishdagi faolligi asosiy tahlil mezonlari sifatida olindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR.

O'zbekistonda mikroloyihalarni amalga oshirish aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda. Chunki mikroloyiha oddiy moliyaviy yordam shakli emas, balki fuqaroning o'z iqtisodiy tashabbusini rejalashtirishi, moliyaviy resurslarni jalb qilishi va ularni natijaga yo'naltirishi bilan bog'liq jarayondir.

Tahlillarga ko'ra, 2025-yil 11-aprel holatiga respublika bo'yicha 208 ta tuman va shahar, 9 453 ta mahalla doirasida jami 45 377 ta mikroloyiha amalga oshirilgan. Ushbu loyihalarning umumiy qiymati 1 856,2 mlrd so'mni tashkil etgan, shundan 1 048,7 mlrd so'mi yoki 56,5 foizi tashabbuskorlarning o'z mablag'lari, 807,7 mlrd so'mi yoki 43,5 foizi bank kreditlari hisobidan moliyalashtirilgan. Mazkur loyihalar natijasida 94 738 ta ish

- 1 Annamaria Lusardi Olivia S. Mitchell Financial literacy and planning: Implications for retirement wellbeing // National bureau of economic research 1050 Massachusetts Avenue Cambridge, MA 02138 May 2011 <http://www.nber.org/papers/w17078>
- 2 Atkinson A. and F. Messy. Measuring Financial Literacy: Results of the OECD // International Network on Financial Education (INFE) Pilot Study, OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions. 2012. № 15. OECD Publishing. URL: <http://dx.doi.org/10.1787/5k9cfs90fr4-en>
- 3 Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S., & Hess, J. (2018). *The Global Findex Database 2017: Measuring Financial Inclusion and the Fintech Revolution*. World Bank Group.
- 4 Muhammedova D. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda moliya siyosati samaradorligini oshirish yo'llari: i.f.b.f.d. ....avtoreferat.-T: TDIU, 2021.-64 b., J.A. Jo'raev Moliyaviy savodxonlikni oshirishda tijorat banklarining roli: i.f.b.f.d. ....avtoreferat.-T: TDIU, 2020.-56 b., Dushmanmedov O.S. Aholining moliyaviy savodxonligini baholashning nazariy asoslari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. - 2020. -T.-№5.- 43-52 b,



o'zni yaratilgan<sup>5</sup>.

Ushbu raqamlar mikroloyihalarning moliyaviy savodxonlik bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Bunda: birinchidan, loyiha tashabbuskori o'z mablag'i va bank kreditidan foydalanish nisbatini baholaydi; ikkinchidan, loyiha qiymati, kutilayotgan daromad va xarajatlarni hisoblaydi; uchinchidan, kredit majburiyatlarini bajarish uchun pul oqimini rejalashtiradi; to'rtinchidan, mahsulot yoki xizmatni bozorga chiqarish orqali oilaviy daromad manbaini kengaytiradi (1-jadval).

#### 1-jadval

##### Mikroloyihalar orqali moliyaviy savodxonlikni shakllantirish mexanizmi

Yo'nalish	Mikroloyiha jarayonidagi amaliy ko'nikma	Moliyaviy savodxonlikka ta'siri
Biznes g'oyani tanlash	Mahsulot yoki xizmatga talabni baholash	Moliyaviy qarorni asoslash ko'nikmasini shakllantiradi
Xarajatlarni rejalashtirish	Loyiha qiymati, xomashyo va aylanma mablag' ehtiyojini hisoblash	Shaxsiy va oilaviy budjetni boshqarishni o'rgatadi
Moliyalashtirish manbalarini tanlash	O'z mablag'i va bank krediti nisbatini aniqlash	Kredit madaniyati va mas'uliyatni kuchaytiradi
Daromadni boshqarish	Sotuvdan tushum, foyda va kredit qaytarish manbalarini rejalashtirish	Pul oqimlarini nazorat qilish ko'nikmasini rivojlantiradi
Raqamli monitoring	Platformaga ma'lumot kiritish va bank xizmatlaridan foydalanish	Raqamli moliyaviy xizmatlarga ishonchni oshiradi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mikroloyiha fuqarolarni moliyaviy bilimlarni faqat nazariy o'rganishga emas, balki ularni real iqtisodiy faoliyatda qo'llashga yo'naltiradi. Shu sababli mikroloyihalar aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda amaliy ta'lim vositasi sifatida baholanishi mumkin (2-jadval).

#### 2-jadval

##### Hududlar kesimida mikroloyihalar ko'rsatkichlari (2025-yil, 1 oylik ma'lumot holatida)<sup>6</sup>

Hudud	Loyiha soni	Loyiha qiymati, mlrd so'm	Bank krediti ulushi, %	Yaratilgan ish o'rni
Qoraqalpog'iston R.	2 324	71.8	58.1	4 747
Andijon	5 536	170.5	34.1	11 805
Buxoro	2 134	99.6	49.6	4 418
Jizzax	1 282	53.6	56.5	2 639
Qashqadaryo	4 652	186.9	43.4	9 414
Navoiy	1 826	74.6	52.5	3 767
Namangan	3 059	103.9	47.6	6 319
Samarqand	3 730	158.3	31.7	7 671
Surxondaryo	3 159	145.4	47.6	6 570
Sirdaryo	1 118	43.7	54.6	2 294
Toshkent sh.	3 452	163.8	26.5	7 537
Toshkent vil.	5 418	245.3	43.0	11 611
Farg'ona	3 861	180.7	41.8	8 101
Xorazm	3 826	158.0	57.5	7 845
Jami	45 377	1856.2	43.5	94 738


Hududlar kesimidagi tahlil mikroloyihalar iqtisodiy faolligini oshirishda muhim hududiy vosita ekanligini ko'rsatadi. Loyiha soni bo'yicha Andijon viloyati, Toshkent viloyati va Qashqadaryo viloyati yuqori o'rinlarda turadi. Loyiha qiymati bo'yicha esa Toshkent viloyati, Qashqadaryo, Farg'ona, Andijon va Toshkent shahri yetakchi hududlar sifatida namoyon bo'ladi.

Respublika bo'yicha bitta mikroloyihaning o'rtacha qiymati 40,9 mln so'mni tashkil etgan. Har bir mikroloyiha

5 O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lumotlari.2025-y.

6 O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.2025-y.

o'rtacha 2,1 ta ish o'rnini yaratgan. Bu ko'rsatkich mikroloyihalarning kichik hajmli bo'lishiga qaramay, ular oilaviy daromad manbaini kengaytirish, o'zini o'zi band qilish va mahalliy iqtisodiy faolligni oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi (1-rasm).




1-rasm. Hududlar kesimida mikroloyihalar soni va yaratilgan ish o'rinlari

1-rasmda mikroloyihalar soni va yaratilgan ish o'rinlari o'rtasida kuchli amaliy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Loyiha soni ko'p bo'lgan hududlarda ish o'rinlari soni ham nisbatan yuqori shakllangan. Bu holat mikroloyihalarni bandlik siyosati va moliyaviy savodxonlik siyosatini birlashtiruvchi muhim instrument sifatida ko'rsatadi.


Mikroloyihalar tarkibida o'z mablag'lari ulushi 56,5 foizni tashkil etgani aholi tashabbuskorligi va moliyaviy mas'uliyatining kuchayib borayotganini anglatadi. Bank kreditlari ulushining 43,5 foiz bo'lishi esa mikroloyihalar rasmiy moliyaviy tizim bilan bevosita bog'lanayotganini ko'rsatadi. Demak, mikroloyihalar aholining bank xizmatlaridan foydalanish, kredit shartlarini tushunish va moliyaviy majburiyatlarni bajarish madaniyatini rivojlantiradi (2-rasm).

Mikroloyihalarni moliyalashtirish manbalari tarkibi



2-rasm. Mikroloyihalarni moliyalashtirish manbalari tarkibi

2-rasmda mikroloyihalarni moliyalashtirish manbalari tarkibi aks ettirilgan. O'z mablag'i ulushining yuqoriligi mikroloyiha tashabbuskorlari mablag' jamg'arish, resurslarni taqsimlash va riskni baholash ko'nikmalariga ehtiyoj sezishini bildiradi. Bank krediti ulushi esa kredit mahsulotlarini tushunish, foiz stavkasi, muddat, garov va qaytarish jadvali kabi masalalarda moliyaviy bilimlarning ahamiyatini oshiradi (3-rasm).



3-rasm. Hududlar kesimida mikroloyihalar qiymati

3-rasm hududlar o'rtasida mikroloyihalar qiymati bo'yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Bunday farqlar hududlarning iqtisodiy salohiyati, tadbirkorlik muhiti, bank kreditlariga kirish imkoniyati, mahallalar soni va loyiha tashabbuskorlarining moliyaviy tayyorgarligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli mikroloyihalarni monitoring qilishda nafaqat loyiha soni, balki loyiha qiymati, moliyalashtirish manbasi va ish o'rni yaratish natijasi ham kompleks baholanishi kerak.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda mikroloyihalar samaradorligini kuchaytirish lozim. Bunda unga ta'sir etuvchi bir qator yo'nalishlar mavjud (3-jadval).

3-jadval

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda mikroloyihalar samaradorligini kuchaytirish yo'nalishlari

Yo'nalish	Taklif etilayotgan chora	Kutilayotgan natija
Moliyaviy ta'lim	Mikroloyiha olishdan oldin qisqa amaliy trening joriy etish	Tashabbuskorlarning xarajat, daromad va kreditni hisoblash ko'nikmalari oshadi
Bank xizmatlari	Tijorat banklari mobil ilovalarida mikroloyiha bo'yicha alohida modul yaratish	Kredit to'lovlari va pul oqimlarini nazorat qilish qulaylashadi
Mahalla monitoringi	Hokim yordamchilari va bank mas'ullari tomonidan loyiha natijalarini muntazam kuzatish	Loyihalarning barqarorligi va mablag'lardan maqsadli foydalanish kuchayadi
Raqamli savodxonlik	"Online-mahalla" va bank ilovalari orqali moliyaviy maslahat bloklarini kiritish	Aholining raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish faolligi oshadi
Natijaviylik bahosi	Har bir hudud bo'yicha loyiha qiymati, ish o'rni va kredit qaytimi indikatorlarini yuritish	Siyosat samaradorligini hududlar kesimida baholash imkoniyati yaratiladi

Keltirilgan jadvalda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda mikroloyihalar samaradorligini kuchaytirish bo'yicha beshta muhim yo'nalish ajratib ko'rsatilgan. Ushbu yo'nalishlar mikroloyiha tashabbuskorlarini faqat moliyaviy mablag' bilan ta'minlash emas, balki ularning moliyaviy bilim, amaliy ko'nikma, raqamli xizmatlardan foydalanish madaniyati va tadbirkorlik qarorlarini to'g'ri qabul qilish salohiyatini oshirishga qaratilgan.

Avvalo, moliyaviy ta'lim yo'nalishi mikroloyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mikroloyiha olishdan oldin qisqa amaliy treninglarni joriy etish tashabbuskorlarga daromad va xarajatlarni hisoblash, kredit mablag'idan maqsadli foydalanish, to'lov jadvaliga rioya qilish hamda kutilayotgan foydani oldindan baholash imkonini beradi. Bu esa mikroloyihalarning samarasiz sarflanishi, kredit yukining ortib ketishi yoki loyihaning qisqa muddatda to'xtab qolishi kabi xavflarni kamaytiradi.

Bank xizmatlari yo'nalishi mikroloyihalarni boshqarishda zamonaviy raqamli moliyaviy vositalardan



foydalanishni kengaytirishga xizmat qiladi. Tijorat banklari mobil ilovalarida mikroloiyahalar bo'yicha alohida modul yaratish orqali fuqaro o'z kredit to'lovlari, qarzdorlik holati, tushum va xarajatlarini muntazam nazorat qilib borishi mumkin. Bu yondashuv mikroloiyaha ishtirokchilarida bank xizmatlaridan ongli foydalanish, moliyaviy intizom va raqamli to'lov madaniyatini shakllantiradi.

Mahalla monitoringi yo'nalishi mikroloiyahalarning joylarda amalda qanday ishlayotganini baholash uchun muhimdir. Hokim yordamchilari va bank mas'ullari tomonidan loyiha natijalarini muntazam kuzatib borish mablag'lardan maqsadli foydalanish, yaratilgan ish o'rinlarining barqarorligi va loyiha tashabbuskorining real daromad olish imkoniyatini aniqlashga yordam beradi. Bu jarayon mikroloiyahalarni faqat rasmiy ko'rsatkich sifatida emas, balki aholining daromadini oshiruvchi amaliy mexanizm sifatida baholash imkonini beradi.

Raqamli savodxonlik yo'nalishi mikroloiyahalar samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega. "Online-mahalla" va bank mobil ilovalari orqali moliyaviy maslahat bloklarini kiritish aholiga kreditdan foydalanish, to'lovlarni amalga oshirish, biznes-reja tuzish, daromad va xarajatlarni yuritish bo'yicha doimiy axborot olish imkonini beradi. Natijada aholi moliyaviy xizmatlardan faqat bankka borib emas, balki mobil ilovalar va raqamli platformalar orqali ham foydalanishga o'rganadi.

Natijaviylik bahosi yo'nalishi esa mikroloiyahalar bo'yicha qabul qilinayotgan siyosiy va amaliy qarorlarning samaradorligini o'lchashga xizmat qiladi. Har bir hudud bo'yicha loyiha qiymati, yaratilgan ish o'rinlari, kredit qaytimi va faoliyatning davomiyligi kabi indikatorlarni yuritish orqali qaysi hududda mikroloiyahalar samaraliroq ishlayotgani, qaysi yo'nalishlarda muammolar mavjudligi va qayerda qo'shimcha moliyaviy ta'lim zarurligini aniqlash mumkin bo'ladi.

Fikrimizcha, bu yo'nalishlar mikroloiyahalarni moliyalashtirish jarayonini oddiy kredit ajratish amaliyotidan kengroq mazmunga ega tizimga aylantirishni nazarda tutadi. Bunda moliyaviy ta'lim, bank xizmatlari, mahalla monitoringi, raqamli savodxonlik va natijaviylik bahosi o'zaro bog'liq holda ishlaydi. Natijada mikroloiyahalar aholining daromad topish imkoniyatini kengaytirish bilan birga, ularning moliyaviy savodxonligi, kredit intizomi, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'nikmasi va tadbirkorlik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bu boradagi jahon tajribasig nazar solsak, kichik hajmli moliyaviy loyihalar va mikromoliyalashtirish mexanizmlari aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda samarali vosita bo'la oladi. Bunday yondashuvda kredit berish faqat moliyaviy resurs ajratish bilan cheklanmaydi, balki biznes-reja, hisob-kitob, pul oqimlari, risklarni boshqarish va bozor bilan ishlash bo'yicha amaliy maslahatlar bilan birgalikda olib boriladi.

Bangladesh, Hindiston, Keniya va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mikromoliyaviy dasturlar aholining kam ta'minlangan qatlamlarini rasmiy moliyaviy tizimga jalb etadi. Bunday dasturlarda moliyaviy ta'lim va konsultatsiya xizmatlari mavjud bo'lsa, kreditdan foydalanish samaradorligi ortadi, qarzdorlik riski kamayadi va oilaviy daromad manbalari kengayadi.

O'zbekiston sharoitida mikroloiyahalar mahalla institutlari bilan bog'langanligi sababli alohida afzallikka ega. Mahalla darajasida aholining ehtiyoji, kasbiy ko'nikmalari, real daromad manbalari va mahalliy bozor imkoniyatlari aniqroq baholanadi. Shu bois mikroloiyahalar moliyaviy savodxonlikni hududiy va ijtimoiy guruhlar kesimida oshirish uchun qulay platforma vazifasini bajaradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mikroloiyahalar aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda muhim amaliy mexanizm hisoblanadi. Ular fuqarolarga daromad va xarajatlarni rejalashtirish, kredit va o'z mablag'idan oqilona foydalanish, biznes g'oyani iqtisodiy asoslash, bank xizmatlaridan foydalanish va moliyaviy majburiyatlarni bajarish bo'yicha real ko'nikmalarni shakllantiradi.

Fikrimizcha, mikroloiyahalar aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda juda muhim amaliy vosita hisoblanadi. Chunki fuqaro mikroloiyaha orqali faqat kredit yoki mablag' olmaydi, balki pulni qanday sarflash, xarajat va daromadni qanday hisoblash, kreditni o'z vaqtida qaytarish va foyda olishni ham amalda o'rganadi.

Respublikada 45 377 ta mikroloiyaha amalga oshirilgani, ularning umumiy qiymati 1 856,2 mlrd so'mni tashkil etgani va 94 738 ta ish o'rni yaratilgani bu yo'nalishning amaliy natijasi borligini ko'rsatadi. Bitta mikroloiyaha o'rtacha 2,1 ta ish o'rni yaratgani esa mikroloiyahalarning mahalla darajasida bandlik va daromad manbaini oshirishga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

Shu sababli mikroloiyahalarni faqat moliyalashtirish dasturi sifatida emas, balki aholiga moliyaviy bilim beradigan amaliy maktab sifatida qarash kerak. Mikroloiyaha olgan fuqaro bank shartlarini tushunadi, kredit miqdorini baholaydi, daromad rejasini tuzadi, xarajatlarini nazorat qiladi va o'z faoliyati natijasini kuzatib boradi. Bu esa unda moliyaviy mas'uliyat, kredit madaniyati va bank xizmatlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi.

Bizningcha, mikroloiyahalar samaradorligini oshirish uchun loyiha ajratishdan oldin qisqa moliyaviy treninglar tashkil etish zarur. Bundan tashqari, tijorat banklari mobil ilovalarida mikroloiyahalar bo'yicha alohida



maslahat va monitoring bo'limlari bo'lsa, fuqarolar o'z kredit to'lovlari, daromad va xarajatlarini qulay kuzatib borishlari mumkin bo'ladi.

Shuningdek, mahalla darajasida hokim yordamchilari va bank mas'ullarining hamkorligini kuchaytirish lozim. Chunki mikroloyihalarning haqiqiy natijasi joylarda ko'rinadi. Loyiha soni bilan birga uning qiymati, qancha ish o'rni yaratgani, kredit qaytimi va loyiha qancha muddat barqaror ishlayotgani ham doimiy tahlil qilib borilishi kerak.

Demak, yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, mikroloyihalar aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va oilalar daromadini ko'paytirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bois mikroloyihalarni moliyaviy ta'lim, bank xizmatlari va mahalla monitoringi bilan bog'lab olib borish kelgusida yanada yuqori natija beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-64-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-7386982>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4862-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5045889>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy savodxonlik va ommaboplikni oshirish bo'yicha materiallar. Toshkent, turli yillar.
4. Lusardi A., Mitchell O.S. Financial literacy and planning: Implications for retirement wellbeing. NBER Working Paper No. 17078. Cambridge, MA, 2011.
5. Atkinson A., Messy F. Measuring Financial Literacy: Results of the OECD/INFE Pilot Study. OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions, No. 15. OECD Publishing, 2012.
6. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S., Hess J. The Global Findex Database 2017: Measuring Financial Inclusion and the Fintech Revolution. World Bank Group, 2018.
7. Fort M., Manaresi F., Trucchi S. Adult financial literacy and households' financial assets: the role of bank information policies. *Economic Policy*, 31(88), 2016. P. 743–782.
8. Bire A.R., Sauw H.M., Maria M. The effect of financial literacy towards financial inclusion through financial training. *International Journal of Social Sciences and Humanities*, 3(1), 2019. P. 186–192.
9. Irgashev A.F. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda moliyaviy siyosatdan foydalanish istiqbollari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent: Tashkent International University, 2025.
10. Dusmuxamedov O.S. Aholining moliyaviy savodxonligini baholashning nazariy asoslari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*. 2020. №5. B. 43–52.
11. Jo'raev J.A. Moliyaviy savodxonlikni oshirishda tijorat banklarining roli: i.f.b.f.d. avtoreferati. Toshkent: TDIU, 2020.
12. Muhammedova D.A. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda moliya siyosati samaradorligini oshirish yo'llari: i.f.b.f.d. avtoreferati. Toshkent: TDIU, 2021.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)